

**G'ARB VA SHARQ ADABIYOTSHUNOSLIK ILMIDA ILOHIY
OLAM TASAVVURLARI**

Muxtorova Umida Tolib qizi

QarDu erkin tadqiqotchisi

E-mail: muxtorovaumida06@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arb olamida Dante ijodidagi ilohiy-fantastik bo'yoqlarda aks etgan tanqidiy fikrlari hamda gumanistik g'oyalarni qat'iyat bilan himoya qilganligi o'rganildi. O'zbek adabiyotshunosligidagi adabiyotshunos kitobxonlardan, Ilhom G'aniyev va Nodira Qurbonovaning ilmiy nuqta'i nazari Dante asarlari va ilg'or tushunchalari bilan tahliliy qiyosiy dalillar bilan solishtirilgan. Shuningdek, sharq hamda g'arb adabiyotidagi ilohiy-diniy motivlar, mifologiyadan foydalanish usullari bilan bog'liq yo'nalishlar ilmiy asoslangan.

G'arb va Sharq adabiyotiga xos ilohiy olam tasavvurlariga oid xulosalar va adabiy kontekstda taqdir hamda inson konsepsiyasi, ilohiy motivlar va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar dialektikasining voqelanish tamoyillari g'arb va sharq yozuvchi, shoir va olimlari talqinlarida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: "Ilohiy Komediya", xayoliy ertak, 33 qo'shiq, 7 gunoh, 9 qavat, Aristotel ta'limoti, Dante, hind afsonalari.

Аннотация: В данной статье исследованы критические мысли, отраженные в богословско-фантастической окраске творчества Данте и его неуклонная защита гуманистических идей. Научная точка зрения Ильхома Ганиева и Нодиры Курбановой, литературоведов узбекского литературоведения, сопоставляется с произведениями Данте и передовыми концепциями с аналитическими и сравнительными данными. Также научно обоснованы направления, связанные с богословско-религиозными мотивами и способами использования мифологии в восточной и западной литературе.

Анализируются выводы о типичных для западной и восточной литературы видениях божественного мира и принципах реализации диалектики судьбы и человеческой концепции, божественных мотивов и духовно-нравственных ценностей в литературном контексте в интерпретациях западной и восточной литературы. писатели, поэты и ученые.

Ключевые слова: «Божественная комедия», воображаемая сказка, 33 песни, 7 грехов, 9 пластов, учение Аристотеля, Данте, индийские легенды.

Annotation: In this article reflected the critical thoughts in the theological-fantasy colors of Dante's work and his steadfast defense of humanist ideas were studied. The scientific point of view of Ilhom Ganiyev and Nodira Kurbanova, who are literary scholars in Uzbek literary studies, are compared with Dante's works and advanced concepts with analytical and comparative evidence. Also, directions related to the theological-religious motives and methods of using mythology in Eastern and Western literature are scientifically based.

Conclusions about the visions of the divine world typical of Western and Eastern literature and the principles of realization of the dialectic of fate and human concept, divine motives and spiritual and moral values in the literary context are analyzed in the interpretations of Western and Eastern writers, poets and scientists.

Key words: "Divine Comedy", imaginary fairy tale, 33 songs, 7 sins, 9 layers, Aristotle's teaching, Dante, Indian legends.

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Kirish. «Ilohiy komediya»– Dante ijodining kamolotga erishgan davridagi siyosiy, falsafiy va adabiy faoliyatining yakuni sifatida bunyodga kelgan. Dante hali ko‘p jihatdan o‘rta asr urf-odatlarini, sxolastik bilim ta‘sirini ostida bo‘lsa ham, lekin bu asarida u zamonaviy masalalarni ilohiy-fantastik bo‘yoqlarda aks ettirib, yangi tanqidiy fikrlari bilan o‘rta asr madaniyatiga falsafiy-adabiy xulosa yasaydi. Gumanistik g‘oyalarni qat‘iylik bilan himoya qilgan bu ulug‘ yozuvchi o‘sha vaqtda avj olgan diniy jaholat va munofiqlikka qarshi ayovsiz kurashdi. «Ilohiy komediya» mavjud dunyodan tashqaridagi ilohiy dunyo ham insoniyat olami ekanligini, noreal dunyo bu yorug‘ va o‘tkinchi dunyoni anglash, saboqlar va ibratlar olish vositasi ekanligini ko‘rsatib bergan ulkan adabiy yodgorlikdir.

Dante «Ilohiy komediya»ni yaratishda o‘rta asrlardagi «videniye» (xayoliy ertak) janridagi allegoriya va simvolikadan unumli foydalangan, biroq unda diniy adabiyotda targ‘ib qilingan «narigi dunyo» g‘oyasi va itoatkorlik emas, real hayot bilan bog‘liq muhim ijtimoiy, falsafiy masalalar talqin etilgan.

Dante «narigi dunyo»ni uch qismga «Do‘zax», «A‘rof» va «Jannat»ga bo‘lgan. Asarning har bir qismi 33 qo‘shiqdan tuzilgan, kirish qismi esa bir qo‘shiq, hammasi bo‘lib 100 qo‘shiqdan iboratdir. Dante tasvirlagan «Do‘zax» (asarning birinchi qismi) yer markaziga voronka shaklida o‘yib tushirilgan joy bo‘lib, unda 9 pog‘onali chuqurlik bor. Gunohkor jonlar shu pog‘onali chuqurlarda azob chekadilar. Pastki pog‘onaga tusha borgan sari, gunohkorlar joni qattiqroq azoblana boradi. Muhim tomoni, Dante o‘zining siyosiy muxoliflarini do‘zaxga tashlaydi, ayniqsa, munofiq xristian dini ruhoniylarini qattiq qoralaydi va ularni do‘zaxning so‘nggi dahshatli pog‘onalari joylashtiradi.

Adabiyotshunos Nodira Qurbonovaning qayd qilishicha, “Dante sof katolik e‘tiqodi tamoyillari, qisman subyektiv nuqtai nazardan jonlarni turli hududlarga «joylashtiradi». Ushbu obrazni yozuvchi Dante» deyish to‘g‘riroq bo‘lardi. Ikkinchi Dante esa voqelikka o‘z shaxsiy munosabatini bildiruvchi hissiyotlarga, ehtirolarga boy bir sayyoh, o‘ta murakkab timsol. U birinchi Dante, yanada aniqrog‘i, katolik ilohiyot ashaddiy gunohkor deb topgan ayrimlar holiga achinadi, ularga xayrixoh munosabatda bo‘ladi” [Qurbonova N.R, 2020; 15].

Dantening asarda tasviricha, «A‘rof» (asarning ikkinchi qismi) yer ko‘rrasiga qaramag qarshi joylashgan. Yer bilan uni katta okean ajratib turadi. Okean o‘rtasidagi orolda baland tog‘ bor. Tog‘ yetti pog‘onali bo‘lib, ulardan o‘tib borayotganida aybdorning bitadan gunohi yuviladi, 7 pog‘oyadan ko‘tarilganda 7 gunoh (mag‘rurlik, ichi qoralik, g‘azab, umidsizlanish, ta‘magirlik, mechkaylik, bo‘zg‘unchilik) yo‘qoladi va u jannatga chiqadi.

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

“Jannat” ham 9 qavatga bo‘linadi, jon qancha yuqori pog‘onaga ko‘tarilsa, u go‘yo xudoning shuncha ko‘p maarhamatiga muyassar bo‘ladi. Ko‘rinadiki, «Ilohiy komediya» o‘zida ilohiy olam va mifologik xususiyatlarni mujassam etgan jahon adabiyotining eng notakror badiiy yodgorligi sanaladi.

Do‘zaxning yo‘lagida jamiyat uchun zarracha qiymati bo‘lmagan qo‘rqoqlar, sharafsizlar yotadi. Ularning kechirgan hayoti tutundan ham tezroq tarqalib ketadiki, ular asli do‘zaxga ham munosibdirlar. Vergiliy shogirdiga: «Qarayu, yonidan o‘tib ketaver», – deydi. Qo‘rqoqlar orasida Dante og‘ir vaziyatda uni tashlab ketgan sotqin sobiq partiyadosh o‘rtog‘ini ham uchratadi.

Adabiyotshunos Ilhom G‘aniyev kitobxon va tadqiqotchi sifatida shunday yozadi: «Umumiy butun «Komediya» nuqtai nazaridan, yer qa‘ridagi Do‘zaxning azob, baland tog‘dagi A‘rofning poklanish, ko‘kdagi Jannatning farog‘at maskani ekani sir emas. Ular xuddi huquq sohasidagi jazo, avfi umumiy hamda toj kiydirish jarayonini eslatadi. Bu hol insonning butun faoliyati, chunonchi, fanlar va tabiat hodisalaridan ko‘chirma ekanini ta‘kidlovchi Aristotel ta‘limotining chinligiga bir dalildir» [Ilhom G‘aniyev, 2001; 82]. I.G‘aniyev ulug‘ faylasuf adib Dantening insoniy munosabatlarni ilohiy dunyo va bugungi zamon bilan mushtarak g‘oyalari haqidagi teran fikr va munosabatlar bildiradi.

Sharq xalqlari adabiyotlarida Ibn Sinogacha va undan keyin ham xayoliy sayr, ilohiy olam tasavvurlari vositasida asar yozish an‘ana bo‘lgan. Eronshunos olim E.Bloshe «Ilohiy komediya»ning sharqiy manbalari» maqolasida keltirishicha, Dantening «narigi dunyo»ga sayohati Zardusht dinidagi taqvodor Viraf tushlarining aks-sadosidir. Shoir buni islom aqidalari orqali qabul qilgan bo‘lishi kerak, deya ta‘kidlaydi olim[3, 1978; 204]. Sharq xalqlari orqasida arab, fors va turkiy tillarda keng tarqalgan «Me‘rojnoma» deb nomlangan yaratmalar shunday asarlardandir. Ularda Muhammad Mustafo Payg‘ambarning osmonga ko‘tarilib, Arshda Xudo dargohiga tashrifi, do‘zaxu jannatni aylanib chiqqani, gunohkorlarning uqubatu hasratlari, pokdomon ruhlarning esa behishtdagi rohat-farog‘atlari kuylanadi. Diniy ezgu maqsadlarni ko‘zlab, islom dinini yanada mustahkamlash kabi ulug‘ niyatda bitilgan bu xayoliy-ilohiy qissalarda zo‘r ehtiros bilan yaratilgan epizodlar son-sanoqsiz. X asr shoiri Shayx Avhaddin Kirmoniyning «Misbohul arvoH» asarida ham xayoliy-ilohiy sayohat vositasi orqali allegorik ma‘no-mazmun o‘z ifodasini topgan. Akademik A.Veselovskiy fikricha, bunday asarlar o‘rta asr xristian adabiyotida ham, Sharqda ham ko‘p bo‘lgan. Chunonchi, ruhlar go‘dakligida u dunyoga olib ketgan bola haqidagi osetin ertagi, o‘ldirilgan akasini izlab, do‘zaxga yo‘l olgan Kubayko ismli qiz

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

to'g'risidagi tatar xalq ertagi va ba'zi hind afsonalari «Ilohiy komediya» asarining mushtarak shaklga oid parallellarini tashkil etadilar[4, 1973; 116].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qurbonova N.R. Noreal hayot tasvirida obraz va xronotop. (Dante Aligyeri va Abdula Oripov ijodi misolida). Fil.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis.avtoreferati. Buxoro, 2020, 15 bet.
2. Ilhom G'aniev Ogohlik qo'ng'irog'i.. Aligyeri Dante. Ilohiy komediY. «Tafakkur» jurnali, 2001 yil, 8-son, 82-bet.
3. «Арабская средневековая культура и литература» (Статьи зарубежных ученых). Москва, «Наука», 1978, стр. 204.
4. Дантевская чтения». Москва. «Наука», 1973, стр.115-116.